

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA TOPONIMIKA

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Ellikqal’a pedagogika fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

M.Xudayarova
Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’riyatidagi toponimlar o‘rganildi. Toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari ochib berildi va tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: onomastika, onomastik birliklar, toponim, toponimiya, toponimika, Muhammad Yusuf.

Adabiyotning so‘z san’ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so‘z, umuman, tildir. Adabiy asarning san’at darajasiga ko‘tarila olishi, uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog‘atiga bog‘liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi tahlil etilmog‘i lozim.

Badiiy asar tilini o‘rganishda onomastikaning o‘rni alohidadir, ayniqsa, shoir yoki yozuvchilarning asarlarida qo‘llanilgan onomastik birliklarni tadqiq etish tilshunoslik uchun muhim masalalarni yoritishga yordam beradi. Biz ushbu maqolamizda Muhammad Yusuf she’rlaridagi toponimlar haqida fikr yuritishga harakat qildik.

Muhammad Yusuf she’rlarida toponimlardan tashqari antroponimlar (*Alpomish, Shiroq, Muqanna, Temur Malik, Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Mashrab, Jaloliddin, Chingiz, Usmon, Qodiriy, Muhammad Yusuf*), kosmonimlar (*yulduz, osmon, ko‘k, samo*), zoonimlar (*G‘irot, jayron, kiyik, qarg‘a, to‘ti*) va boshqa onomastik birliklarni uchratish mumkin.

Toponimika joy nomlarini, ularning paydo bo‘lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o‘zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o‘rganuvchi bo‘limdir. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui – toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi.

Toponimikani o‘rganish, ularning ma’nolarini, tarixiy va madaniy xususiyatlarini tahlil qilish, tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya kabi sohalar uchun ilmiy manba hisoblanadi.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Muhammad Yusuf she’rlarida xalqimizning tarixiy xotirasini, ajdodlar xotirasiga sadoqatini, o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga – Vatanga muhabbatini o‘ziga xos badiiy vositalardan mohirona foydalangan holda tasvirlaydi. Ijodkorning she’rlari O‘zbekistonning geografik nomlari va ularning joylashgan joylari, tabiiy resurslari, tarixiy obidalari hamda madaniy meroslari haqida o‘ziga xos ta’riflar berilganligi bilan ham ajralib turadi.

Quyida “Vatanim” she’ridagi toponimlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

Sen **Xo‘jandsan**,[2]

Chingizlarga

Darvozasin ochmagan,

Temur Malik orqasidan

Sirdaryoga sakragan,

Muqannasan qorachig‘i

Olovlarga sachragan,

Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon,

Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Xo‘jand (1936-91 yillarda Leninobod) – shahar, Tojikiston Respublikasi Sug‘d viloyati markazi. Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, Turkiston tizmasi bilan Mo‘g‘ultog‘ o‘rtasida, Sirdaryo bo‘yida joylashgan. Temir yo‘l stansiyasi. Dushanbe shahrigacha 341 km. Aeroport bor. Aholisi 167,4 ming kishidan ko‘proq (2013), asosan, tojiklar va o‘zbeklar tashkil qiladi [1].

Sirdaryo – O‘rta Osiyodagi eng uzun va Amudaryodan keyingi eng sersuv daryo hisoblanadi. Umuman olganda, nafaqat O‘rta Osiyoda, butun Sobiq ittifoqda ham shunday hisoblangan (eng uzun, sersuvligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda).

Kim **Qashqarni** qildi makon,

Kim **Enasoy** tomonda,

Jaloliddin – **Kurdistonda**,

Boburing – **Hindistonda**,

Bu qanday yuz qarolig‘, deb

Yotarlar zimistonda,

Tarqab ketgan to‘qson olti

Urug‘imsan, Vatanim.

Qashqar yoki Koshg‘ar – (Xitoy manbalarida Kashi, Kashiger) – XXRning g‘arbiy qismidagi shahar. Sintszyan-Uyg‘ur muxtor rayoni (Sharqiy Turkiston) da, Tarim vohasining shimoliy g‘arbida Qizilsuv daryosi sohilida joylashgan. Mazkur toponim “qosh toshi (nefrit) koni” degan ma’noni anglatadi. Aholisi 400 ming kishidan ziyod (2005) [3].

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Enasoy – Osiyodagi daryo. BiyXem va Ka-Xem daryolarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Yuqori oqimi Tuva soyli bo‘ylab oqib, so‘ng G‘arbiy Sayan tog‘ sistemasini kesib o‘tadi va G‘arbiy Sibir chegarasi bo‘ylab oqadi, Kara dengizining Yenisey qo‘ltig‘iga quyiladi. Uzunligi 3487 km (Ka-Xem daryosi boshidan 4092 km), havzasining maydoni. 2580 ming km.

Kurdiston – G‘arbiy Osiyodagi tog‘li o‘lka, tarixiy viloyat. Kurdistonning aksar qismi Old Osiyo va Eron tog‘liklarida joylashgan. Kurdistonning aniq, chegarasi bo‘lmaganligidan bu nom faqat etnografik ma’nodan ishlatiladi.

Hindiston – Janubiy Osiyodagi davlat. Hududi shimoldan janubga 3214 km, g‘arbdan sharqqa 2933 km cho‘zilgan. Shimolida Himolay tog‘lari, g‘arbda Arabiston dengizi, sharqda Bengaliya qo‘ltig‘i bilan o‘ralgan. Hindiston tarkibiga Arabiston dengizidagi Lakkadiv va Amindiv orollari, Bengaliya qo‘ltig‘idagi Andaman va Nikobar orollari ham kiradi. Maydoni – 3,3 million km². Aholisi – 1428627663 kishi (2023) [4]. Poytaxti – Nyu-Dehli. Ma’muriy jihatdan 28 ta shtat va 8 ta ittifoq hududidagi bo‘linadi.

Muhammad Yusuf she’riyatida toponimlar o‘rni bilan qo‘llanib, asarning ta’sirchanligini, undagi xalqona milliy ruhni kuchaytirish, oddiylik va samimiylilikni ta’minlash uchun xizmat qilgan. Shoir poetik uslubining ana shu xususiyatini lingvopoetik jihatdan yanada kengroq va chuqurroq tadqiq etish hozirgi o‘zbek she’riyatining joziba kuchini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Атлас мира. – М.: ПКО „Картография“ Федерального агентства геодезии и картографии Министерство транспорта Российской Федерации: Издательство Оникс, 2008.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent, 2004.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
4. Essential Desk Reference, Oxford University Press, 2002.